

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 5 (1604), 2026-yil 9-yanvar, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

MUROJAATNOMA —
SHUNCHAKI NUTQ EMAS,
KELAJAGIMIZNI BELGILOVCHI
MUHIM HUJJAT

Mamlakatimiz barcha yo‘nalishlarda jadal rivojlanyapti. Yaqin o‘tmishda iqtisodiyotimiz hajmini 100 milliard dollarga yetkazish juda katta marra bo‘lib ko‘ringan bo‘lsa, 2025-yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 145 milliard dollardan oshdi. Bu ko‘rsatkichni 2030-yilgacha 240 milliard dollardan oshirish rejalashtirilmoqda. Mana shunday ulkan maqsad va kelajak dasturlarini belgilab olish, ularni amalga oshirishda Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi muhim ahamiyatga ega. Davlatimiz rahbarining navbatdagi Murojaatnomasi xalqimiz va jamiyat kayfiyati, yurtdoshlarimizning xohish-istaklari, manfaatlarini ifoda etgan siyosiy chiqish sifatida keng jamoatchilik e‘tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

Davomi 2-betda

Inson qadri uchun

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH
BO‘YICHA MILLIY TAJRIBA

Bugungi davrga kelib, jamiyatimizda ilm-fan va texnologiyalar sohasida yuksak darajada taraqqiyotga erishilgan bo‘lsa-da, inson huquqlari va manfaatlarini ta‘minlash borasida talaygina vazifalar hamon o‘z yechimini kutmoqda.



Ushbu holatlarni bartaraf etish, dunyoda tenglik va adolatni ta‘minlash uchun BMT tomonidan Barqaror rivojlanish maqsadlari haqida muhim hujjat qabul qilingan. Unga ko‘ra, 2030-yilgacha global miqyosda kambag‘allikka barham berish ushbu maqsadlarning birinchisi sifatida belgilab olingan. Mazkur tamoyillarni ro‘yobga chiqarish barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar, umuman, jahon hamjamiyati oldiga yangi va dolzarb vazifalarni qo‘yib, ularga yechim topish bo‘yicha tezkor qarorlar qabul qilishni taqozo etmoqda.

Davomi 3-betda

PROKURATURA XODIMLARI
QONUN USTUVORLIGI VA ADOLAT
TIMSOLI BO‘LISHI, XALQ
ISHONCHINI OQLASHI ZARUR

2016-yil 19-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, 8-yanvar – O‘zbekistonda prokuratura organlari xodimlari kuni etib belgilangan. Shundan buyon bu sana yurtimizda keng nishonlab kelinmoqda.

Prokuratura organlari — mamlakatda qonuniyligni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida izchil faoliyat yuritmoqda.

Prokuratura organlarining bugungi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiya talablarining to‘liq va so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash, barcha sohalarida qonuniyligni mustahkamlashga yo‘naltirilgan.

Ijtimoiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo‘nalishida aholini ijtimoiy muhofaza qilish, bandligini ta‘minlash va ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilayotir.

Iqtisodiy sohada qonuniyligni mustahkamlash, ayniqsa, investitsiya dasturlari ijrosini so‘zsiz ta‘minlash, energiya resurslari talon-taroj qilinishining oldini olish, yashirin iqtisodiyot shakllanishining turli usul va kanallarini aniqlash hamda ularga barham berish borasida tizimli ishlar ro‘yobga chiqarilmoqda.

Tadbirkorlar va xorijiy investorlarga qonun ustuvorligi, shuningdek, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash borasida amaliy yordam ko‘rsatilmoqda.

Prokurorlarning sud protsesslaridagi ishtiroki, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ko‘rilayotgan choralar, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, tergov va tekzor-qidiruv faoliyati bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarga alohida e‘tibor qaratilayotir.

Davomi 2-betda

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatimizning o‘rta va uzoq muddatli taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilab beruvchi asosiy dasturiy hujjat hisoblanadi. U davlat siyosatida barqarorlik, izchillik va uzoqni ko‘zlab rejalashtirish tamoyillarini mustahkamlagan holda, yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan islohotlarning strategik asosidir.

YURTDOSHLARIMIZ HAYOTINING
FAROVONLIK DASTURI

So‘nggi yillarda mamlakatimizda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, fuqarolik jamiyati va inson huquqlarini ta‘minlash sohalarida salmoqli natijalarga erishildi. Biroq hayot bir joyda to‘xtab qolmaydi: jamiyat ehtiyojlari kengaymoqda, global

iqtisodiy, texnologik va geosiyosiy jarayonlar yangi talab va chaqiriqlarni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Shu bois, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini mavjud real sharoit, aholi ehtiyojlari hamda jadal o‘zgarayotgan global tendensiyalardan kelib chiqqan holda takomillashtirish obyektiv zarurat sifatida namoyon bo‘layotir.

Davomi 2-betda

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING
STRATEGIK KUCHI

Shu ma‘noda, yoshlarga oid davlat siyosati ijtimoiy rivojlanishning alohida yo‘nalishi sifatida baholanishi tabiiy. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida yoshlarga yuksak baho va ishonch bildirilib, ta‘lim, ilm-fan, madaniyat, san‘at, sport va boshqa sohalarida erishayotgan yutuqlari yangi O‘zbekiston taraqqiyotida muhim omil sifatida e‘tibor etilgani ham shundan dalolat.

Ortada qolgan yil ham yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish jarayoni mazmunan yangi bosqichga ko‘tarilgani bilan yodda qolarli bo‘ldi. Bu davrda yoshlar bilan ishlash umumiy chaqiriqlar, samarasi kam, eskicha yondashuvlardan voz kechilib, asosiy e‘tibor tizimlilikka, manzillilikka va ijro uchun aniq mas‘uliyat belgilashga qaratildi. Yoshlar masalasi ijtimoiy muammo emas, balki boshqariladigan va natijasi baholanadigan siyosiy yo‘nalish sifatida ko‘rila boshladi. Shu sabab yoshlar siyosatining institutsional asoslari mustahkamlandi, amaliy mexanizmlar esa hayotga yaqinlashtirildi.

Davomi 5-betda

O‘z taraqqiyot yo‘lini aniq belgilab olgan, kelajagini uzoqni ko‘zlab rejalashtirayotgan bugungi O‘zbekistonda yoshlar masalasi islohotlarning asosiy tayanchi, eng katta ishonch manbai va strategik resurs sifatida ko‘rilayotgani bejiz emas. Aholisi 38 milliondan ziyod bo‘lgan mamlakatda demografik jarayonlarning faolligi, har yili o‘rtacha 1 milliondan ortiq yigit-qizning katta hayotga qadam bosayotgani jamiyat oldiga mutlaqo yangi mas‘uliyat va vazifalarni qo‘ymoqda.

TADBIRKORLIKKA
RAG‘BATLANTIRUVCHI
MUQOBIL YO‘NALISH

4



Boshlanishi 1-betda

DAVLAT BOSHQARUVI ARXITEKTURASIGA CHUQUR SINGDIRILGAN, ORTGA QAYTMAS JARAYONLAR

Prezidentimizning tarixiy Murojaatnomasida mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichiga doir ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi.

Ilhom SUVONOV,
Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti
ilmiy kotibi,
falsafa fanlari doktori, dotsent

Bugun yangi O‘zbekiston jadal va har tomonlama rivojlanishning qizg‘in pallasiga kirdi. Bu jarayon tizimli xususiyatga ega, davlat va jamiyat hayotining barcha yo‘nalishlarini: iqtisodiyot, sanoatdan tortib, ijtimoiy siyosat, gumanitar soha, fan-ta‘lim, madaniyatgacha qamrab olgan.

Islohotlar yagona mantiqiy tizim asosida amalga oshirilmoqda. Unda har bir qaror avvalgis bilan uzviy bog‘liq, ular uzoq muddatli natijaga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Barcha o‘zgarishlarning asosida inson sha‘ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash yotadi. Bu shunchaki deklaratsiya emas, balki davlat siyosati, ijtimoiy standartlar va boshqaruv falsafasini qayta ko‘rib chiqishda amaliy yo‘nalish bo‘lib xizmat qilmoqda.

E‘tiborlisi, bugungi islohotlar alohida bir tashabbus yoki qarorlar ko‘rinishidagina mavjud emas, ular davlat boshqaruvi arxitekturasiga chuqur singdirilgan, ortga qaytmaz jarayonlardir.

Har bir yo‘nalish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirilmoqda. Uzoq muddatli strategiyalar shakllantirilib, maqsadli ichki va tashqi investitsiyalar jalb etilyapti.

O‘zbekiston institutsional rivojlanish, shaffof qoidalarni joriy etish hamda hokimiyat tarmoqlari o‘rtasida mas‘uliyatni aniq taqsimlash yo‘lidin izchil bormoqda. Aynan shu institutsional barqarorlik mamlakatimizning asosiy kapitaliga aylangan.

Ayniqsa, islohotlar poytaxt bilan bir qatorda barcha hududlarni: aholi zich yashaydigan viloyatlardan tortib, olis manzillargacha birdek qamrab olayotgani muhim ahamiyatga ega. Hududiy rivojlanish, sanoatlashish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, tadbirkorlik va bandlikni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy o‘sinh va ijtimoiy barqarorlikning mustahkam poydevorini shakllantirmoqda.

Jahon siyosiy-huquqiy amaliyotida davlat rahbarining parlamentga murojaatnomasi muhim demokratik institutlardan biri hisoblanadi. U rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida strategik rejalashtirish, siyosiy javobgarlik va hokimiyat tarmoqlari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta‘minlash vositasi sifatida qo‘llaniladi.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Murojaatnoma bu — shunchaki nutq emas, u bir vaqtning o‘zida o‘tgan faoliyat uchun yakun va xulosa chiqaradigan hamda kelajak kun tartibini belgilab beradigan dasturiy, siyosiy, huquqiy hujjattir.

Shuningdek, u qonun ijodkorligi faoliyati uchun yo‘nalishlarni belgilaydi, ijro hokimiyati ustuvor vazifalarini aniqlaydi hamda jamoatchilik



bilan muloqotning muhim mexanizmi sifatida xizmat qiladi. O‘zbekistonda ushbu institutning nafaqat joriy etilgani, balki izchil rivojlanayotgani prinsipial ahamiyatga ega. Bu siyosiy tizim yetukligi, parlamentarizm mustahkamlanayotgani va mamlakatning demokratik islohotlar yo‘lida ongli harakat qilayotganining yaqqol namunasi.

Prezidentimiz 2017-yildan boshlab Oliy Majlis palatalari va yurtdoshlarimizga Murojaatnoma taqdim etishi barqaror siyosiy an‘ana aylandi. O‘tgan yillar davomida O‘zbekiston Prezidenti bir necha bor Murojaatnoma bilan chiqish qildi, har biri davlat transformatsiyasining muayyan bosqichini va islohotlar modelining rivojlanishini aks ettirdi.

Bugungi kunda Murojaatnoma endi faqat deputatlarga qaratilgan murojaat emas, balki u mamlakat aholisi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot hamda xalqaro hamjamiyatga yo‘naltirilgan ovozga aylandi.

Har safar ushbu muhim siyosiy voqea yangi O‘zbekistonning ochiqligi, zamonaviyligi va o‘ziga ishonchini ramziy tarzda namoyon etmoqda. Keng ma‘noda, Murojaatnoma siyosiy kommunikatsiya shakli bo‘lib qolmay, davlat bilan jamiyat o‘rtasida doimiy hamda barqaror aloqaning mustahkam mexanizmiga aylandi. Bu hokimiyat o‘z qobig‘iga o‘ralib olmaydigan, balki odamlarning talab va ehtiyojlari bilan o‘z yo‘nalishini muntazam solishtirib boradigan ochiq va mutlaqo yangi boshqaruv modelini aks ettiryapti.

Ushbu institutning ahamiyati shundaki, u rivojlanish strategiyasini ochiq va tushunarli jarayonga aylantirdi. Davlat ustuvor yo‘nalishlarni oshkora belgilaydi. O‘z zimmasiga majburiyatlar oladi va shu orqali o‘zaro ishonch muhitini shakllantiradi. Jadal global o‘zgarishlar sharoitida bunday shaffoflik jamiyat barqarorligi va ichki birdamlikni ta‘minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Bu galgi Murojaatnomada ham kasbidan qat‘i nazar, barchaning manfaatiga birdek xizmat qiladigan muhim vazifalar, yaqin va o‘rta istiqbolga mo‘ljallangan chora-tadbirlar, mamlakatimiz taraqqiyotiga daxldor yangidan yangi g‘oyalar ilgari surildi.



“Murojaatnomada ilgari surilgan har bir tashabbus zamirida inson qadrlini ulug‘lash, iqtisodiy o‘sinhni ijtimoiy adolat bilan uyg‘unlashtirish va davlat boshqaruvida hisobdorlikni kuchaytirish g‘oyalari borligi e‘tiborga molik.



Dadajon ISAQULOV,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i

HUQUQIY TAFAKKUR, BILIM VA BARQAROR YUKSALISH

Biz bugun 38 milliondan ziyod aholiga ega bo‘lgan, o‘z taqdiriga befarq bo‘lmagan, ertangi kunga ishonch bilan qaraydigan, g‘ururi baland xalqmiz. Bu shunchaki raqam emas, balki ulkan intellektual, ma‘naviy va iqtisodiy salohiyatdir. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, biz o‘zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o‘z aql-zakovatimiz va mas‘uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz.



Axtam YAKUBOV,
yuridik fanlar doktori, professor

Ana shu falsafa asosida shakllangan Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnoma mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi. Ayniqsa, 2026-yilga mo‘ljallangan islohotlarda ta‘lim, yoshlar, kasbiy tayyorgarlik, raqamlashtirish va mahalla tizimi o‘zaro uyg‘un holda tahlil etilib, shunga mos rejalar belgilangani bilan alohida ahamiyat kasb etdi.

2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilinishi tasodifiy emas. Chunki mahalla faqat hududiy birlik emas, balki ijtimoiy kapital, birdamlik maktabi, tarbiya va hamjihatlik manbaidir.

Ijtimoiy so‘rovlarga ko‘ra, aholining 90 foizi o‘zini mahalla jamoasining ajralmas qismi deb hisoblashi jamiyatda Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usining yuksakligini ko‘rsatadi. Demak, mahalla tinch bo‘lsa — jamiyat tinch bo‘ladi, mahalla rivojlansa — mamlakat yuksaladi.

Murojaatnomada ta‘lim sohasiga alohida e‘tibor qaratilgani bejiz emas. Bugun dunyoda yangi texnologiyalar, sun‘iy intellekt, raqamlashtirish ta‘sirida mehnat bozori tubdan o‘zgarmoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi avtomatlashirilishi, 50 foizi esa mutlaqo yangi malakalarni talab qilishi kutilmoqda.

Shunday sharoitda ta‘lim tizimi, ayniqsa, kasbiy ta‘lim iqtisodiyot ehtiyojlariga javob berishi shart. Shu ma‘noda,

OCHIQLIK — QAT‘IY POZITSIYAMIZ

Prezidentimiz Murojaatnomasi yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bugungi holati va ertangi maralarini aniq belgilab beradigan tarixiy hujjat bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari ochiq va samimiy ruhda yutuqlarni ham, oldimdiza turgan vazifalarni ham aniq ko‘rsatib berdi. Murojaatnomadagi olitua ustuvor yo‘nalish hayotimizda katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globalashuv sharoitida davlatlarning raqobatbardoshligi tabiiy resurslar yoki sanoat qudrati bilangina emas, balki, eng avvalo, inson kapitalining sifati bilan belgilanmoqda. Zero, sifati ta‘lim va ilm-fanga e‘tibor davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shu ma‘noda,

joriy yildan hududlarda ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi va “Kasblar shaharchasi” faoliyati yo‘lga qo‘yilishini strategik qaror, desak hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Binobarin, “Kasblar shaharchasi” maktab o‘quvchilarini qurilish, servis, qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, “yashil” energetika kabi zamonaviy kasblarga yo‘naltirishi kelgusida yetuk kadrlar zaxirasi shakllanishiga katta zamin hozirlaydi.

Murojaatnomada ilgari surilgan har bir tashabbus zamirida inson qadrlini ulug‘lash, iqtisodiy o‘sinhni ijtimoiy adolat bilan uyg‘unlashtirish va davlat boshqaruvida hisobdorlikni kuchaytirish g‘oyalari borligi e‘tiborga molik.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan texnikumlarni isloh qilish siyosati strategik ahamiyatga ega.

Joriy yildan boshlab har yili kamida 100 ta texnikum to‘liq rekonstruksiya qilinadi, zamonaviy uskunarlar bilan jihozlanadi va mehnat bozorida talab yuqori kasblarga moslashtiriladi. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarning ilg‘or ta‘lim dasturlari joriy etiladi.

Bu orqali nafaqat raqobatbardosh mutaxassislar, balki xalqaro standartlarga javob beradigan, xorijiy tillarni biluvchi kadrlar tayyorlanadi. Ayniqsa, tibbiyot sohasida xalqaro talablarga mos hamshiralar tayyorlash tizimining joriy etilishi sog‘liqni saqlash tizimi sifat jihatidan yangi bosqichga chiqishini anglatadi.

Muhim yo‘nalishlardan yana biri, dual ta‘lim tizimini keng joriy etishdir. Ta‘lim va ish beruvchi o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan korxonalarga imtiyozlar berilishi, texnikum o‘quvchilari uchun stipendiya joriy etilishi yoshlarning kasbga qiziqishini oshiradi. Bu tizim orqali bitiruvchi yoshlar “diplomli, lekin ishsiz” emas, balki malakali, tajribali va bozorga tayyor kadrlar sifatida shakllanadi.

15 ta oliygohda sun‘iy intellekt laboratoriyalari, 4 ta data-markaz va 2 ta superkompyuter ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bu ta‘lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqani mutlaqo yangi darajaga olib chiqadi.

Tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, transport, bank-moliya, jamoat xavfsizligi kabi sohalarda 100 dan ortiq AI loyihalar amalga oshirilishi kelajak avlod uchun intellektual sakrash demakdir.

Prezidentimiz ilgari surgan yana bir muhim masala — oliy ta‘limni xalqaro boshqaruv modellariga o‘tkazish. Jizzax politexnika institutining xorijiy universitet boshqaruviga berilishi, aniq fanlar bo‘yicha yangi xalqaro oliyog‘h tashkil etilishi ta‘lim sifatiini oshirishga qaratilgan tizimli qadamdir. Bu jarayon nafaqat bilim, balki tafakkur, tadqiqot madaniyati, akademik erkinlikni ham rivojlantiradi.

Umuman, Murojaatnomada belgilab berilgan islohotlar bu — alohida dasturlar yig‘indisi emas, balki yaxlit milliy taraqqiyot strategiyasidir. Uning markazida esa inson, yoshlar, ta‘lim va ma‘naviyat turibdi. Agar biz belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etsak, 2026-yil haqiqatan ham jamiyatni yuksaltirish, ta‘limni yangi bosqichga olib chiqish va milliy salohiyatni to‘liq ochish yili bo‘ladi. Bu yo‘lda esa barchamiz bir tanu bir jon bo‘lib harakat qilishimiz shart.

PROKURATURA XODIMLARI QONUN USTUVORLIGI VA ADOLAT TIMSOLI BO‘LISHI, XALQ ISHONCHINI OQLASHI ZARUR

Boshlanishi 1-betda

Soha xodimlarining mashhaqqatli va mas‘uliyatli faoliyatida erishilayotgan shu kabi yutuqlar sana munosabati bilan “Turkiston” san‘at saroyida tashkil etilgan tantanali tadbirida e‘tirof etildi.

Tadbirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadov davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning prokuratura organlari xodimlari va faxriylariga bayram tabrigini o‘qib eshittirdi.

Qutlovda so‘nggi yillarda prokuratura organlari faoliyatida amalga oshirilgan islohotlar natijasida ular xalqqa yaqin bo‘lib, inson qadri, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini bevosita joylarda ta‘minlayotgan tizimga aylangani alohida ta‘kidlandi.

Xususan, o‘tgan yilda qariyb 512 ming nafar fuqaroning buzilgan huquqlari tiklangani, 54 mingga yaqin murojaat, jumladan, 29 mingga yaqin tadbirkorning masalalari ijobiy hal etilgani prokuratura organlari faoliyatining samaradorligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Norgul ABDURAIMOVA,
O‘ZA muxbiri

YURTDOSHLARIMIZ HAYOTINING FAROVONLIK DASTURI

Boshlanishi 1-betda

Takomillashayotgan strategiya markazida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan fundamental g‘oya — “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” tamoyili turadi.

Yangi tahrirdagi strategiya aynan shu g‘oyani amaliy mazmun bilan boyitgan holda, mamlakatimizning o‘rta muddatli rivojlanishini yanada samarali, natijaga yo‘naltirilgan va hisobdor tizim asosida davom ettirishni ko‘zlaydi. Bunda har bir qaror, har bir islohot inson manfaati, uning hayot sifati va farovonligi nuqtayi nazaridan baholalanadi.

Hujjatni takomillashtirish jarayonida amaldagi strategiya doirasida erishilgan natijalar chuqur tahlil qilinib, mavjud muammolar va yechim talab qilayotgan yo‘nalishlar aniqlanyapti. Shu bilan birga, maqsad va vazifalarni aniq o‘lchash hamda baholash imkonini beruvchi samaradorlik ko‘rsatkichlari qayta ko‘rib chiqilmoqda.

Strategiyaning prinsipial yangilligi shundaki, unda har bir maqsad uchun mas‘ul davlat organi yoki tashkilot ochiq va ravshan

belgilab qo‘yiladi. Shuningdek, belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy manbalar ham aniq ko‘rsatiladi. Bu esa strategiyani umumiy niyatlar majmuasidan aniq ijro mexanizmlari, javobgarlik va hisobdorlikka asoslangan amaliy dasturga aylantiradi.

Takomillashayotgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining yana bir muhim jihati — uning har bir fuqaro uchun tushunarli va hayotiy bo‘lishiga qaratilganidir. Strategiya shunday shakllantirilmoqdaki, har bir yurtdoshimiz unga nazar solib: “Bu hujjat menga nima beradi?”, “U mening hayotimni qanday yaxshilaydi?”, “Oilam va farzandlarim kelajagi uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?” degan savollarga aniq javob topa olsin.

Ya‘ni strategiya abstrakt shiorlar emas, balki har bir inson hayotida seziladigan, kundalik turmushda namoyon bo‘ladigan aniq o‘zgarishlar manbai bo‘lishi ko‘zlanmoqda.

Strategiyada belgilangan o‘rta muddatli maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari yangi iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik chaqiriqlar, shuningdek, xalqaro maydonda kechayotgan o‘zgarishlarga mos ravishda



Eldor TULYAKOV,
“Taraqqiyot strategiyasi”
markazi ijrochi direktori

yangilanmoqda. Bu davlat siyosatining ochiq, moslashuvchan va zamon talablariga javob beradigan bo‘lishini ta‘minlaydi.

Shubilanbirga, strategiya ijrosini monitoring qilish tizimini to‘liq raqamlashtirishga alohida

e‘tibor qaratilmoqda. Bu ijro holatini shaffof kuzatish, aniq ma‘lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish imkoniyatini yaratadi.

Soha, tarmoq va hududlarni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilinayotgan barcha strategik hujjatlarni “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bilan to‘liq uyg‘unlashtirish ko‘zda tutilmoqda. Bu davlat siyosatining yaxlitligi, o‘zaro muvofiqligi va natijaviyligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Eng muhim prinsipial jihatlardan biri — strategiyaning xalq bilan maslahatlashuv asosida shakllantirilishidir. Davlatimiz rahbari yaqinda parlament va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasida ushbu talabni qo‘ydi. Loyiha jamoatchilik muhokamasiga havola etilib, aholi, fuqarolik jamiyati institutlari, ekspertlar va keng jamoatchilikning taklif va mulohazalari inobatga olinishi rejalashtirilgan. Chunki faqat xalq bilan birgalikda ishlab chiqilgan hujjatgina hayotiy, ishonchli va samarali bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining takomillashtirilishi bu — mavjud islohotlarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va zamon talablariga mos ravishda rivojlantirishga qaratilgan izchil, ochiq va mas‘uliyatli jarayondir. Eng muhimi, ushbu strategiya faqat davlat idoralari uchun emas, avvalo, xalqimiz, har bir yurtdoshimizning farovon hayotini ta‘minlashga xizmat qiladigan umummilliy taraqqiyot dasturi sifatida shakllantirilmoqda.

2024-yilda pul aylanmasi 1 trillion soʻmdan oshgan 203 ta korxona bor edi.

2025-yilning dastlabki olti oyida ularga qoʻshimcha yana 47 ta korxona 400-500 milliard soʻmlik marrani zabt etdi.

YANGI OʻZBEKISTON

uznews

yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

LOYIHALARIMIZ
YANADA KOʻPAYDIYulduz SUVONOVA,
Jizzax shahridagi "Atlant Architects
Group" MCHJ rahbari, "Faol tadbirkor"
koʻkrak nishoni sohibi

Mamlakatning rivojlanganlik koʻrsatkichlarini juda koʻp omillar belgilaydi, shulardan biri bunyodkorlik ishlaridir. Yangi Oʻzbekistonning keyingi yillardagi islohotlari, taraqqiyotiga qarab buni yaqqol koʻrish mumkin. Yurtimiz chin maʼnoda bunyodkorlik zaminiga aylandi. Odamlarni uy-joyli qilish, farovon yashashi uchun zarur xizmatlarni oshirish maqsadida mamlakatimiz boʻylab katta qurilishlar ketyapti, yangidan yangi turar joylar barpo qilyapti.

Ayniqsa, ushbu soha tadbirkorlikda eng katta yoʻnalishlardan biriga aylanib, oʻnlab qurilish kompaniyalari paydo boʻldi. Investitsiya koʻlami ham katta. Natijada zamonaviy, ilgʻor texnologiyalarga asoslangan bino-inshootlar qurilib, foydalanishga topshirilaypti.

Soha rivoji bizniki kabi loyiha kompaniyalari koʻpayishiga ham turtki bermoqda. Yaʼni qurilishlar bilan birga xalqaro standartlarga asoslangan loyihalarga

ham talab ortgan. Boisi, quruvchi tashkilotlar bino-inshootning qad rostlashini taʼminlaydi, obyektning loyihalari esa loyiha tashkilotlari tomonidan tayyorlanadi.

Korxonamiz 2016-yilda tashkil etilgan. Hozirgi kunda 30 dan ortiq kishi mehnat qiladi, buyurtmalar asosida ishlaymiz. Asosiy faoliyatimiz loyihalarni ishlab chiqish, qurilishda tahlil, oʻlchov ishlarini amalga oshirish, binolar uchun texnik xulosalar tayyorlashdan iborat. Oʻtgan yillar davomida qator yirik loyihalarni amalga oshirdik. Xususan, soʻnggi uch yilda koʻplab obyektlar qurilishlarini jahon standartlariga mos holda loyihalashtirdik. Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam Jizzax filiali va Amasoy tumani ixtisoslashtirilgan maktabi binosini rekonstruksiya qilish, Qozon federal universiteti Jizzax filiali binosini taʼmirlash va jihozlash, Forish tumanida 330 oʻrinli umumtaʼlim maktabining yangi binosi qurilishi uchun bajarilgan loyiha-smeta ishlari shular jumlasidan.

2025-YIL KORXONAMIZ
UCHUN BARQAROR KELDI.
LOYIHALARIMIZ SONI HAM,
KOʻLAMI HAM OSHDI. YILLIK
DAROMADIMIZ
3-3,5 MILLIARD SOʻMGA YETDI.

Nafaqat Jizzax viloyati, balki boshqa hududlardagi qurilish ishlariga ozmi-koʻpmi hissa qoʻshib kelyapmiz. Loyihalarni tayyorlashda sifatga, davlat standartlariga mos, qurilish meʼyorlari va qoidalariga toʻliq rioya etilishiga katta eʼtibor qaratiladi. Chunki loyiha qancha puxta qilinsa, koʻtariladigan bino shuncha mustahkam boʻladi. Qolaversa, inshoot zamonaviy texnologiyalarga asoslangan boʻlishi barobarida uzoq yillar xizmat qilishi ham asosiy masala hisoblanadi. Buning uchun har bir jihadni eʼtiborga olish lozim.

Umuman, hozir tadbirkor toʻgʻri, halol ishlasa, faoliyati kengayib, daromadi oshib boraveradi. Chunki yurtimizda nihoyatda katta rivojlanish, islohotlar boʻlyapti. Ularga "labbay" deb javob berishimiz uchun ham barcha sharoit, imkoniyatlarimiz bor. Oʻtgan yilda oʻzimizning yoʻnalishda sezilarli oʻzgarishlar, ijobiy oʻsish kuzatildi. Yangidan yangi loyiha tashkilotlari ochildi, ular orqali koʻplab ish oʻrinlari yaratildi. Taklif beruvchi korxonalarning koʻp boʻlishi sogʻlom raqobatni shakllantiradi.

QOZOGʻISTONDA HAM
FILIALLARIMIZ BOR

Farrux ABDULLAYEV,
Toshkent shahridagi "Bellissimo Pizza International"
MCHJ jamiyati taʼsischisi va rahbari, "Faol tadbirkor"
koʻkrak nishoni sohibi



Umumiy ovqatlanish tizimi keyingi yillarda eng rivojlanayotgan tarmoqlardan biriga aylandi. Bu milliy iqtisodiyot taraqqiyoti, odamlarning turmush farovonligi yaxshilanishi bilan ham bogʻliq, albatta. Ammo, boshqa tomondan, bu yoʻnalishdagi tadbirkorlarga juda katta imtiyoz va imkoniyatlar berilyapti. 2025-yil ham sohada ijobiy qadamlarga boy boʻldi. Masalan, restoranlarning tashqarisiga terassa qoʻyish boʻyicha yengilliklar berildi.

Ochigʻi, bu tadbirkorlarni anchadan buyon qiynab kelayotgan masala edi. Davlatimiz rahbari 2025-yil avgust oyida tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ana shu eʼgillikni aytganida, koʻpchilik xursand boʻldi. Qolaversa, soliqlar boʻyicha qator imtiyozlardan foydalanib kelyapmiz. Ular yanada rivojlanishimizga zamin yaratyapti.

Korxonamizning asosiy faoliyati pissa tayyorlash va uni yetkazib berishdan iborat. "Bellissimo Pizza" milliy brendi bilan xalqimizga xizmat qilib kelyapmiz. Qoʻshimcha sifatida gazli ichimliklar va boshqa yenguliklar ham tayyorlaymiz, lekin asosiy mahsulotimiz pissadir. Pissa turlari mavsumga qarab oʻzganib turadi, doim yangiliklar qilishga intilamiz. Bugungi kunda Oʻzbekiston boʻylab 81 ta filialimiz mavjud. Qozogʻistonda ham 3 ta filialimiz ish boshlagan, yaqin oylarda yana toʻrttasi ochildi. Har yili kompaniyamiz filiallari bilan birga mijozlarimiz soni ham oshib boryapti. Franchayzing tarzida hamkorlar bilan ishlayapmiz. Jami 2200 dan ortiq kishini ish bilan taʼminlaganmiz.

2025-yil korxonamiz uchun omadli keldi. Oldimizga qoʻygan rejalarimizning deyarli hammasiga erishdik. Ilk bor yurtimizdan tashqari bozorga chiqdik va aynan 2025-yilda jamoamiz bilan birgalikda buni uddaladik.

Bugungi kunda Oʻzbekiston boʻylab 81 ta filialimiz mavjud. Qozogʻistonda ham 3 ta filialimiz ish boshlagan, yaqin oylarda yana toʻrttasi ochildi. Har yili kompaniyamiz filiallari bilan birga mijozlarimiz soni ham oshib boryapti. Franchayzing tarzida hamkorlar bilan ishlayapmiz.

TADBIRKORLIKKA
RAGʻBATLANTIRUVCHI

MUQOBIL YOʻNALISH

Oʻzbekistonda kambagʻallikka qarshi kurashish va uni qisqartirishga tizimli yondashilyapti.

Bu orqali xalqning turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni yanada qoʻllab-quvvatlash davlatning ustuvor siyosatiga aylangan. Jumladan, oʻtgan qisqa muddatda respublika va hududlar miqyosida ehtiyojmand oilalarni qoʻllab-quvvatlash uchun 30 ga yaqin huquqiy-meʼyoriy hujjat qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat aholini ish bilan taʼminlash, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha chora-tadbirlar koʻrishi belgilab qoʻyildi. Shuningdek, "Oʻzbekiston — 2030" strategiyasida ham 2026-yilga qadar kambagʻallikni 2022-yilga nisbatan 2 barobar, 2030-yilgacha esa keskin qisqartirish, kambagʻallikka tushish xavfi mavjud 4,5 million kishining daromadini oshirish, ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan.

Oʻtgan davrda minglab mikro va kichik korxonalar katta-katta kompaniyalar bilan raqobat qila boshladi. Masalan, 1600 ta mikrokorxona bir yilda pul aylanmasini 10 milliard soʻmdan oshirib, birdan oʻrta korxonaga, 143 tasi esa 100 milliard soʻmdan oshirib, yirik korxonaga aylandi. Yana

122 ta kichik korxona oldinga ikki qadam sakrab, yirik biznes subyektlari safiga qoʻshildi. 2024-yilda pul aylanmasi 1 trillion soʻmdan oshgan 203 ta korxona bor edi. 2025-yilning dastlabki olti oyida ularga qoʻshimcha yana 47 ta korxona 400-500 milliard soʻmlik marrani zabt etdi. Biznesni "soya"dan chiqarish boʻyicha yangi mexanizmlar koʻpaytirilgani hisobidan 139 mingta korxonada ish oʻrinlari 811 mingtaga koʻpayib, 2,2 milliondan 3 millionga yetdi. 273 mingta korxona ish haqi fondini 22 foiz yoki 4,6 trillion soʻmga oshirdi. 2024-yili xususiy sektorda oʻrtacha oylik 4 million soʻmni tashkil qilgan boʻlsa, oʻtgan yili 5 million soʻmga yaqinlashdi.

Soʻnggi yillarda xalqaro maydondagi oʻzgarishlar milliy iqtisodiyotimizga ham katta taʼsir oʻtkazmoqda. Iqtisodiy faollikning pasayishi, tashqi savdo, logistika, oziq-ovqat va xomashyo narxi, energiya bilan barqaror taʼminlashdagi muammolar tadbirkorlarni xavotirga solmoqda.

Turli ziddiyatlar tufayli davlatlararo logistika va mahsulot yetkazib berish zanjiri uzilgani, hamkor mamlakatlar valyutasining qadrsizlangani, global miqyosda inflyatsiya darajasi yuqori boʻlib qolayotgani oqibatida moliyaviy resurslarning qiymatlashishi kabi koʻpgina omillar tadbirkorlarga salbiy taʼsir qilmoqda.

Bundan tashqari, kun sayin koʻpayayotgan aholi uchun daromad manbalarini topish, ish bilan taʼminlash, oʻz ishini boshlab olishi uchun imkoniyat



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ
TILIDA HAM OʻQISH
UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!



BIZNESNI RIVOJLANTIRISH
BANKI VA TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISH KOMPANIYASI
TASHKIL ETILIB, 2024-YIL
AVVALIDAN 35 MINGDAN ORTIQ
TADBIRKORGA OʻRTACHA 100 MILLION
SOʻMDAN JAMI 3,5 TRILLION SOʻM
MIKROKREDIT AJRATILDI.

yaratish bilan bogʻliq muammolar soni ham oshmoqda. Shunday murakkab vaziyatda tadbirkorlikni koʻllab-quvvatlashning birinchi va asosiy yoʻnalishlardan biri moliyaviy resurslar taʼminotini koʻpaytirishdir.

Davlatimiz rahbari taʼkidlaganidek, biznesni qoʻllab-quvvatlashning eng muhim instrumenti bu — moliyaviy xizmatlar. Yaxshi loyihalar uchun pul izlayotgan tadbirkorlar koʻp, investitsiya kiritaman, deganlar ham yetarli.

Amaldagi tartibga koʻra, masʼuliyati cheklangan jamiyatlar investitsiya kiritayotgan shaxsni taʼsischi qilib olishga majbur. Lekin bunga hamma ham rozi boʻlmaydi. Shu bois, resurs boʻyicha asosiy yuklama haligacha banklar gardaniga tushyapti.

Mazkur yoʻnalishda ham mamlakatimizda bir qancha ishlar qilindi. Kichik va oʻrta biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlashning yangi tizimi joriy etildi. Ushbu yoʻnalishda Biznesni rivojlantirish banki va Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etilib, 2024-yil avvalidan 35 mingdan ortiq tadbirkorga oʻrtacha 100 million soʻmdan jami 3,5 trillion soʻm mikrokredit ajratildi.

Bundan tashqari, "Biznesga birinchi qadam" dasturi boʻyicha tadbirkorlikni endi boshlayotgan 115 ming kishiga 1 trillion soʻmlik mikroqarzarlar berildi.

uchun qoʻshimcha moliyaviy resurslar, jumladan, depozit jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida bank xizmatlarini ruxsat etilgan shartlar asosida koʻrsatish vakolatiga ega boʻlgan yuridik shaxs — mikromoliya banki institutini joriy qilish, mikromoliya tashkilotlarini mikromoliya banklariga va mikromoliya banklarini tijorat banklariga hamda aksinchta, transformatsiya qilishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi.

Mazkur meʼyoriy hujjatlarga asosan, mamlakatda mikromoliyalash bozori hajmini kamida 5 barobar oshirish, mikromoliyaviy xizmatlar bilan 1 milliondan ortiq tadbirkorlik subyektni qamrab olish, mikromoliya tashkilotlari resurs bazasida jismoniy shaxslardan jalb qilinadigan mablagʻ miqdorini 2 barobar oshirish va mikromoliyaviy xizmat koʻrsatish orqali rasmiy daromadga ega boʻlmagan 500 mingga yaqin shaxsning oʻzini oʻzi band qilishi va biznesini rivojlantirishga koʻmaklashish vazifalari belgilab berildi.

Bundan tashqari, qarorda tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan mikroqarzni eng yuqori miqdori 50 million soʻmdan 100 million soʻmgacha oshirildi. Shu bilan birga, mikromoliya tashkilotlariga norezidentlardan xorijiy valyutada qarz mablagʻlarini jalb qilish hamda

yuridik shaxslarga xorijiy valyutada moliyaviy xizmatlar koʻrsatish, jismoniy shaxs boʻlgan ishtirokchilardan ustav fondiga kiritilgan hissa summasining yoki ularning egaligidagi aksiyalar nominal qiymatining ikki baravaridan oshmaydigan miqdorda qarz mablagʻlarini jalb etishga ruxsat berildi.

Qarorga binoan, mikromoliya tashkilotlariga tijorat banklaridan kredit resurslari jalb etilganda yoki tadbirkorlik subyektlariga mikromoliya tashkilotlaridan mikrokredit olinganda "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ kafilligini berish imkoniyati yaratilishi koʻrsatib oʻtilgan.

Jahon tajribasi asosida Oʻzbekistonda shakllanayotgan mikromoliyalashtirish banklari kichik va oʻrta tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashning muhim vositasi aylanaypti. Chunki mikromoliyalashtirish banklari mikromoliyalashtirishning ichki manbalariga yoʻnaltirilganlik konsepsiyasiga mos keladi va mikromoliyalashtirish banklarining kredit tizimini rivojlantirishga koʻmaklashadi. Bu esa tashqi global iqtisodiy tahdidlar sharoitida mamlakat iqtisodiyotini

rivojlantirishga koʻmaklashuvchi vosita vazifasini oʻtaydi.

Maʼlumotlarga koʻra, dunyoda 140 milliondan ortiq kishi turli mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanadi va mikromoliya tashkilotlarining umumiy portfeli 124 milliard dollardan oshadi.

Umuman olganda, jahon tajribasi mikromoliyalash kambagʻal odamlarning dastlab oʻzini oʻzi ish bilan taʼminlashi uchun zarur ishlab chiqarish imkoniyatlarini ochish usuli ekanini koʻrsatadi. Biroq mikromoliyalash kredit shartnomalariga asosan, innovatsiyalarni joriy etish uchun ham koʻllanadi.

Bugun mikromoliyalash dasturlari AQSH, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda ham mavjud. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda mikromoliyalash bozoriidan ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun samarali vosita sifatida foydalaniladi. U ishsizlik darajasini pasaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlarining salohiyatini roʻyobga chiqarishda zarur boʻlgan moliyaviy qoʻllab-quvvatlash ishlarida juda muhim.

Anʼanaviy tijorat banklaridan farqli ravishda mikromoliya banki kichik hajmdagi kreditlar va moliyaviy xizmatlarni past daromadli aholi, mikrobiznes va fermer xoʻjaliklariga taqdim etuvchi moliya institutidir.

Banklarga mutanosib yoʻnalishda mikromoliyalashtirish tashkilotlari faoliyatiga keng yoʻl ochilishi tadbirkorlarni qoʻllab-quvvatlash manbalarining koʻpayishiga, pirovardida iqtisodiy faollikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Maqsud RUSTAMOV,
Ibrohim TOʻYMUHAMMEDOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
professorlari

WS



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

2026-yil 9-yanvar, 5-son

Sarhisob

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING STRATEGIK KUCHI

“

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda eng katta qamrov “Besh tashabbus olimpiadasi”da kuzatildi. Ushbu tashabbus doirasida o‘tkazilgan tanlov va musobaqalarda 10,9 million nafar yosh ishtirok etdi. Madaniyat va san‘at yo‘nalishida 1 million, sport yo‘nalishida 7,2 million, kitobxonlik va intellektual o‘yinlar doirasida 2,7 million nafar yosh qamrab olindi.

“

Boshlanishi 1-betda

2025-yil 14-fevral kuni bo‘lib o‘tgan Prezidentimizning yoshlar bilan ochiq muloqoti bu boradagi yillik “yo‘l xaritasi”ni belgilab olishda dasturlamal bo‘ldi. Uchrashuv umumiy ruhida yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning faol subyekti sifatida ko‘rish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash hamda salohiyatini to‘liq namoyon etish uchun tizimli sharoit yaratish g‘oyasi ustuvorlik kasb etdi. Jumladan, yoshlarning bilim olish yo‘li faqat diplom bilan yakunlanib qolmasligi, ularning zamonaviy kasblarni egallashi, raqamli ko‘nikmalarni puxta o‘zlashtirishi va mehnat bozoriga real ehtiyojlarga moslashuvi zarurligi ta’kidlandi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan fikrlarda maktab, kollej, texnikum va oliy ta’lim tizimi o‘rtasidagi uzviylik, shuningdek, ta’lim natijasini aniq iqtisodiy samaradorlik bilan bog‘lash masalasi muhim yo‘nalish sifatida qayd etildi.

Davlatimiz rahbari yoshlar bilan muloqotda ularning jamiyatdagi o‘rmini chuqur anglash, qonunlarga hurmat, halollik va tashabbuskorlikni hayot mezoniga aylantirish zarurligini ta’kidladi. Bu esa yoshlar siyosatida faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga tayanish yetarli bo‘lmasiligini, insoniy va xalqqa qadriyatlar bilan uyg‘unlik muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Qishloq va chekka hududlarda yashovchi yoshlar bilan megapolislarda istiqomat qiluvchi tengdoshlari o‘rtasidagi imkoniyatlar tafovutini qisqartirish, ta’lim, bandlik va madaniy rivojlanish xizmatlarini joylarda kengaytirish masalalari ustuvor vazifa sifatida qayd etildi. Bu yondashuv yoshlarning qayerda tug‘ilganidan qat’i nazar, o‘z salohiyatini to‘liq yobga chiqarishi uchun teng sharoit yaratishga qaratilgan umumiy siyosiy irodaning ifodasi bo‘lib xizmat qildi.

Shu nuqtaiy nazardan, davlat va yoshlar o‘rtasidagi munosabat bir tomonlama murojaat shaklidan tizimli hamkorlik darajasiga ko‘tarilayotgan, kelajak avlod masalasi strategik rejalashtirish markazida turgan, har bir tashabbus uzoq muddatli taraqqiyot manzarasi bilan bog‘lanayotgan hozirgi sharoitda mamlakatimizdagi yoshlarga oid siyosatning bugungi holatini umumlashtiruvchi va kelgusi yo‘nalishlarini belgilab beruvchi eng muhim jihatlariga to‘xtalib o‘tish, o‘tgan yil sarhisobiga bir qur nazar tashlash, o‘ylaymizki, o‘rinli bo‘ladi.

Ta’lim

2025-yilda yoshlarga oid davlat siyosatida ta’lim masalasi alohida ustuvor yo‘nalish sifatida shakllandi va u boshqa barcha yo‘nalishlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Ta’lim yoshlarga o‘z salohiyatini anglash, jamiyatda munosib o‘rin egallash, mustaqil fikrlash va kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yish imkonini beradigan asosiy ijtimoiy institutdir. Shu bois, 2025-yilda ta’lim bilan bog‘liq ishlar miqyosi ancha kengaydi, mazmunan chuqurlashdi.

Jumladan, 21-aprel kuni davlatimiz rahbari maktab ta’limi sifatini oshirish va pedagoglar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid taqdimot bilan tanishar ekan, yoshlar siyosatida miqdoriy qamrovdan mazmuniy natijaga o‘tish zaruratini aniq ifodalab berdi. Ushbu taqdimotda ta’lim infratuzilmasini yangilash bilan bir qatorda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik saviyasi, zamonaviy kompetensiyalarni egallashi ta’lim sifatini belgilovchi hal qiluvchi omil ekan ko‘rsatib o‘tildi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar bilan uyg‘un holda maktab ta’limini real hayot, kasb tanlovi va mehnat bozori ehtiyojlariga yaqinlashtirish, o‘quvchi shaxsini mustaqil fikrlashga, mas’uliyatli qaror

2025-yilda

yoshlarga

oid davlat

siyosatida

ta’lim masalasi

alohida ustuvor

yo‘nalish sifatida

shakllandi va u

boshqa barcha

yo‘nalishlar uchun

asos bo‘lib xizmat

qildi. Ta’lim yoshlarga

o‘z salohiyatini anglash,

jamiyatda munosib o‘rin

egallash, mustaqil fikrlash va

kelajakka ishonch bilan qadam

qo‘yish imkonini beradigan asosiy

ijtimoiy institutdir. Shu bois,

2025-yilda ta’lim bilan bog‘liq

ishlar miqyosi

ancha kengaydi, mazmunan

chuqurlashdi.



2025-yilda

yoshlarga oid

davlat siyosati

nafaqat amaliy

natijalari bilan,

balki aniq

siyosiy qarash,

ravshan strategik

yo‘nalish va ochiq

muloqotga tayangan

boshqaruv uslubi

bilan ham ajralib turdi.

Davlatimiz rahbarining

yoshlarga bo‘lgan ishonchi

va ularni yangi O‘zbekiston

taraqqiyotining asosiy kuchi

sifatida ko‘rishi mazkur siyosatning

ichki mantig‘ini belgilab berdi. Bu

yondashuv yoshlarning bugungi imkoniyatlarini

kengaytirish bilan birga mamlakatning ertangi rivoji

uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 30-yanvardagi “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni esa yoshlar ijtimoiy himoyasi tizimini mazmunan qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Ushbu farmon orqali “Yoshlar daftari” va boshqa ijtimoiy daftarlarda doirasida ko‘rsatiladigan yordamlar yagona yondashuv asosida tartibga solinib, moliyaviy ko‘makning manzilliligi, shaffofligi hamda real ehtiyojlarga mosligi asosiy mezon sifatida belgilandi. Yoshlar bilan ishlash faqat ro‘yxatga olish va bir martalik yordam berishdangina iborat bo‘lmay, ularning hayotiy vaziyatini chuqur tahlil qilish, ijtimoiy xavf omillarini oldindan aniqlash hamda individual rivojlanish yo‘llarini belgilashga yo‘naltirilgan tizim sifatida shakllantirildi.

Farmonning yana bir muhim jihati shundaki, u ijtimoiy yordamni bandlik, ta’lim va kasbga yo‘naltirish choralaridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq yagona mexanizm sifatida ko‘rishni nazarda tutadi. Grantlar, subsidiyalar, ssudalar va boshqa qo‘llab-quvvatlash instrumentlari yoshlarni mustaqil daromad topishga, kasbiy barqarorlikka erishishga undovchi vosita sifatida qayta talqin qilindi.

Ijtimoiy himoyaning muhim yo‘nalishi sifatida tarbiyasi og‘ir, nazoratga muhojir, turli xavf omillari ta’sirida qolgan yoshlar bilan manzilli ishlash ko‘lami kengaydi. Xususan, tarbiyasi og‘ir 51 ming 455 nafar yosh 6 ta huquq-tartibot va mudofaa organlarining 4155 nafar mas’ullari nazoratga berilib, uchrashuvlar natijasida 48 ming 747 nafar yosh sog‘lomlashtirildi, hayotda o‘z o‘rmini topishiga ko‘maklashildi. Mazkur yo‘nalishda e’tiborga molik natijalardan biri shuki, ulardan xulqi ijobiy tomonga o‘zgargan 22 ming 931 nafar otiqliq olgan mas’ul kafiligi ostida muddatdan oldin probatsiya va profilaktika hisobidan chiqarilgan. Bu yerda probatsiya instituti masalasiga ham e’tibor qaratish zarur, chunki probatsiya nazorati ostidagi shaxslar bilan ishlashda insonparvarlik, qonuniylik, qayta ijtimoiylashuv tamoyillari davlat siyosatida alohida o‘rin tutadi, bu yondashuvning huquqiy asosi sifatida “Probatsiya to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi ham tizimning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Profilaktika va ijtimoiy himoya samarasi o‘laroq, yoshlar jinoyatchiligi o‘tgan yilning 11 oyida 17 foizga kamaygan, 4388 ta hudud “yoshlar jinoyatchiligidan xoli mahalla”ga aylangan. Bu natija ko‘p bo‘lg‘inli mexanizmlarning umumiy samarasi hisoblanadi: otiqliq olish, probatsiya va profilaktika amaliyoti, mahalla raislari bilan hamkorlik, ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, tarbiyaviy tadbirlar, muammoli oilalar bilan ishlash, murakkab toifadagi yoshlarni qayta yo‘naltirish kabilar bir-birini to‘ldirganida shunday ko‘rsatkich yuzaga chiqadi.

Ta’kidlash kerakki, yoshlar bilan ishlashda qabul qilinayotgan qarorlar chanaqlik puxta bo‘lmasin, ular mahallada jiro etilmasa, kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, 2025-yilda “mahalla yettilligi”ning muhim bo‘g‘ini sifatida yoshlar yetakchiligi faoliyatini metodik, tashkiliy va kadrlar siyosati jihatidan mustahkamlash ustuvor vazifaga aylandi. Ma’lumotlarga ko‘ra, ijtimoiy lift dasturi asosida yil davomida 338 nafar yoshlar yetakchisi yuqori lavozimlarga ko‘tarildi, bu umumiy yetakchilar sonining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich yoshlar yetakchisi lavozimiga vaqtinchalik yoki ikkinchi darajali bosqich sifatida emas, balki davlat boshqaruvi tizimida real kadrlar zaxirasini shakllantiruvchi muhim maktab sifatida qaralayotganini anglatadi. Shu tariqa 2025-yilda yoshlarga oid davlat siyosati nafaqat amaliy natijalari bilan, balki aniq siyosiy qarash, ravshan strategik yo‘nalish va ochiq muloqotga tayangan boshqaruv uslubi bilan ham ajralib turdi. Davlatimiz rahbarining yoshlarga bo‘lgan ishonchi va ularni yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy kuchi sifatida ko‘rishi mazkur siyosatning ichki mantig‘ini belgilab berdi. Bu yondashuv yoshlarning bugungi imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga mamlakatning ertangi rivoji uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qilmoqda.

zamonaviy kasblar va kitobxonlik loyihalariga jami 7,8 million nafar yosh jalb etildi. Shuningdek, rag‘batlantirish mexanizmlarining joriy etilishi ham yoshlarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. Xalqaro imtihon topshirish xarajatlarini qoplash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar buning yaqqol misolidir. Jumladan, 17,3 ming nafar yoshga 38,7 milliard so‘m mablag‘ ajratilgan, umumiy hisobda esa 56,4 ming nafar yosh 111 milliard so‘mlik kompensatsiyadan foydalandi.

Ta’lim jarayonini faollashtirishda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham muhim omillardan sanaladi. “TalabaFest — 2025” festivali doirasida 800 ming nafar talabani qamrab olingan, “Besh tashabbus olimpiadasi”da esa millionlab yoshlarning turli tanlov va musobaqalarda ishtirok etgani ta’lim muhitining faqat rasmiy darslar bilan chegaralanib qolmagani ko‘rsatadi. Shuningdek, Toshkent shahrida tashkil etilgan “O‘zbekiston o‘quv markazlari forumi”da yuzlab o‘quv markazlari va minglab yoshlarning ishtiroki ta’lim xizmatlari sifatini oshirish, tajriba almashish va yangi imkoniyatlarni

Alohida loyihalar doirasida ham qamrov yanada oshgan. “Ibrat farzandlari” loyihasida 2,9 million nafar yosh, “Qizlar akademiyasi” loyihasida 620 ming nafar xotin-qiz, “Ustoz AI” loyihasida 831 ming, “Mutolaa” loyihasida esa 3,5 million nafar navqiron avlod vakillari ishtirok etgan. Ushbu loyihalar yoshlarning intellektual, ma’naviy va texnologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi bilan ham ahamiyatli.

Bandlik

O‘tgan yil mobaynida yoshlar bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar tizimining turli bo‘g‘inlarini bir maqsadga asoslab qilgan amaliy mexanizmlar orqali yuritildi. Ishsiz va shaxsiy biznesni boshlash istagidagi yigit-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Yoshlar bandligi dasturi” ishlab chiqildi va shu yo‘nalishda 414,6 ming nafar yoshning bandligi ta’minlandi. Bu ko‘rsatkichning o‘zi bandlik masalasiga yondashuv ko‘lami va mas’uliyat darajasini anglatadi, ya’ni keng qatlamdagi yoshlarga yo‘naltirilgan, bir vaqtning o‘zida ham ish o‘rni, ham tadbirkorlik, ham kasbga



muhokama qilish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qildi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda eng katta qamrov “Besh tashabbus olimpiadasi”da kuzatildi. Ushbu tashabbus doirasida o‘tkazilgan tanlov va musobaqalarda 10,9 million nafar yosh ishtirok etdi. Madaniyat va san‘at yo‘nalishida 1 million, sport yo‘nalishida 7,2 million, kitobxonlik va intellektual o‘yinlar doirasida 2,7 million nafar yosh qamrab olindi. “Dolzarb 90 kunlik” tadbirlarida esa loyihalar, tanlovlar, musobaqalar va sayohat dasturlari orqali 6,7 million nafar yosh jalb qilindi. Bu tadbirlar yozgi ta’til davrida yoshlarning bo‘sh vaqtini ijtimoiy foydali faoliyat bilan to‘ldirish, ularni turli salbiy ta’sirlardan himoyalash, jamoatchilik faolligini oshirishga xizmat qildi.

yo‘naltirish imkoniyatlarini jamlagan mexanizm shakllantirildi.

Prezidentimizning 2025-yil 14-fevraldagi “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yoshlarning mehnat bozoriga kirishini bosqichma-bosqich ta’minlashga qaratilgan tizimli mexanizmi belgilab berdi. Hujjatga ko‘ra, o‘zini o‘zi band qilish, kasanachilik, kichik biznes va startap tashabbuslarini qo‘llash orqali barqaror daromad manbalarini shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatildi. Xususan, “Biznesga birinchi qadam” tamoyili asosida yoshlarni kasbga yo‘naltirish, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini

Ijtimoiy himoya

O‘tgan yilda yoshlarga oid davlat siyosatida ijtimoiy himoya masalasi faqat moddiy ko‘mak berish doirasi bilan cheklanmay, yosh avlodning hayotdagi barqarorligini ta’minlash, ularning muammolarini erta aniqlash, xavf omillarini kamaytirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, muhitni sog‘lomlashtirish singari yo‘nalishlarni bir zanjirga bog‘lagan yondashuv sifatida namoyon bo‘ldi.

“

OILAVIY TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YUZASIDAN KO‘RILAYOTGAN CHORALAR HAM KENG AHOLI QATLAMINI QAMRAB OLIB, YOSHLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHDA SAMARALI USUL EKANI ISBOTINI TOPIB ULGURDI. SHU JUMLADAN, OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH DASTURLARI DOIRASIDA 80 MING 146 NAFAR YOSHGA 1 TRILLION 378,9 MILLIARD SO‘M IMTIYOZLI KREDIT AJRATILGAN. BU BORADA MANZILLI KO‘MAK MEKANIZMLARINING O‘RNI ALOHIDA.

6

MEZON

2026-yil 9-yanvar, 5-son

Mahalla va yaxshi qoʻshnichilik jamiyatimizda uzoq yillar davomida shakllangan, bir-birini hurmat qilish va qoʻllab-quvvatlashga asoslangan ezgu qadriyatlarimizdan. Muhim jihati shundaki, ular ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlab, odamlar oʻrtasida ishonch va hamjihatlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Izhor

ULKAN MARRALAR ZABT ETILADIGAN YIL

Farrux YUNUSOV,
Oʻzbek milliy maqom sanʼati
markazi direktori

Bu esa, oʻz navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy kapitalni boyitadi va barqarorlikni taʼminlaydi, har bir insonning faol ishtirokini ragʻbatlantirib, umumiy farovonlikka hissa qoʻshadi.

Vatan taqdiriga daxldorlik tuygʻusi yuqoriligi ushbu institut, avvalo, ijtimoiy birdamlik manbai ekanini koʻrsatadi.

Shu bois, Prezidentimiz oʻz Murojaatnomasida tarix davomida qanday ogʻir sinovlarga duch kelmaylik, avvalo, birdamlikdan kuch olganimizni, mashaqqatli kunlarda odamlar va mahalla ahli bir-biriga yelkadosh boʻlib, barcha qiyinchiliklarni yengib kelganini, shunday noyob qadriyatga doimo sodiq qolishimiz va yosh avlodni aynan shu ruhda tarbiyalashimiz zarurligini alohida qayd etdi.

— Bugungi kunda jamiyatimizda turli xil fikr va qarashlar boʻlishi tabiiy. Bu — demokratiyaning birlamchi talabi. Ammo millati, tili va dinidan qatʼi nazar, 38 millionli el-yurtimizni birlashtiradigan ulugʻ bir gʻoya

bor. U ham boʻlsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaatidir. Mana shunday buyuk maqsadga erishishda mahalla tizimining oʻrni va taʼsiri beqiyos. Chunki mahalla tinch va ahil boʻlsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat boʻladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi, — dedi Prezidentimiz.

Shularning barchasini hisobga olib, davlatimiz rahbari 2026-yilni yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb eʼlon qilishni taklif qilganida men bu tanlovning nozik jihatlarini ilgʻash bilan birga uning naqadar chuqur oʻylanganidan chin maʼnoda hayratlandim. Boisi, yangi yil uchun tanlangan nom jamiyatimizning bugungi holatini ham, ertangi ehtiyojini ham aniq ifodalab beradi. Uni eshitgan zahoti zaldagi barcha ishtirokchilar singari kamina ham bu nomning tasodifiy emasligini, u xalq istaklari va talablaridan kelib chiqqanini angladim.

Soʻnggi yillarda qabul qilingan har bir muhim qaror va amalga oshirilgan islohotlar quvvati mahallalarda, bevosita odamlarning hayotida aks etmoqda. Mahalla insonning kundalik hayoti, dardiyo quvonchi, muammosi va orzu-umidi birlashgan maskan ekan, jamiyat aynan

shu kichik, biroq hal qiluvchi boʻgʻinlardan tashkil topadi, ularning har biri milliy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega.

2025-yil 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suv kirib bordi, yana 2 million 300 mingga yaqin aholining suv taʼminoti yaxshilandi. 5 million aholi daromadli boʻlib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambagʻallikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla kambagʻallikdan xoli hududga aylandi. Yurtimizda kambagʻallik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi.

Davlatimiz rahbari ochiqlik va oshkoralik siyosatida hech qachon ortga qaytilmasligini qatʼiy taʼkidladi. Aslida, ushbu Murojaatnomaning oʻzi ham mana shu siyosatning eng yorqin namunasi. Unda mamlakatning kelgusi yillarga moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari, islohotlar mantigʻi va davlat siyosatining strategik yoʻl xaritasi aniq va ravshan belgilab berildi.

Shu bois, 2026-yil oldingilaridan sira qolishmaydigan, yangidan yangi marralar zabt etiladigan yil boʻlishiga shubhamiz yoʻq.

Har bir sohaning jasoratli kishilari boʻladi.
Ular bir qarashda oddiy, el qatori koʻrinadigan, ammo botinidagi kuchli iroda, matonat sabab olgʻa intiladigan shaxslardir.

YANGI OʻZBEKISTON

Ocherk

“BARCHASIGA IMKON TOPA OLDIM...”
Bogʻbon Akbar Hasanovning jasorati

Shahrisabzlik Akbar Hasanov Qishloq xoʻjaligi xodimlari kuni arafasida “Jasorat” medali bilan taqdirlandi. Albatta, har bir sohaning jasoratli kishilari boʻladi. Ular bir qarashda oddiy, el qatori koʻrinadigan, ammo botinidagi kuchli iroda, matonat sabab olgʻa intiladigan shaxslardir. Shu bois, ular yonginamizda yashasa ham jasoratiga koʻpincha eʼtibor qilavermaymiz. Shukrki, dunyoda adolat, uni roʻyobga chiqaradigan odamlar bor. Davlatimiz rahbari ham Akbar Hasanovning intilishlarini eʼtibordan chetda qoldirmadi. Uni barchamizga namuna qilib koʻrsatdi. Biz uning hayoti va faoliyat yoʻli bilan sizlarni ham tanishtirishni lozim topdik.

... U bolaligida shoʻx edi. Sport musobaqalarida oʻrtoqlari unga tenglasha olmasdi. Ayniqsa, futbol bahslari usiz oʻtmasdi. Toʻpuraligi sabab har safar yuqori sinf oʻquvchilari uni jamoasiga qoʻshib olardi. Albatta, u ham ishonchini oqlardi. Chaqqonligi ish berib, oʻyin boshlanishi bilan birinchi boʻlib hisobni ochar, olqishlar unga zavq berardi. Kurash bellashuvlarida esa kattalarni ham dogʻda qoldirar, gohida bir koʻtarishda raqibining

boʻla boshladi. Oʻzini oʻzi koʻniktirib, oldinga intilishga kuch topdi. Avvaliga aravachada harakatlanib, oʻrtoqlariga qoʻshilmoqchi boʻldi. Mahalla oʻyingohida toʻp tepayotgan bolalar yaqiniga bordi. Chetda turib, oʻyinni tomosha qildi. Gohida zavqi kelib, ular safiga qoʻshilib ketishga chogʻlanardi. Ammo endi buning imkonini yoʻq.

... Akbarning koʻnglida boshqalar qatori yurish istagi paydo boʻldi. Bunga yoʻl qidirdi. Kattalardan surishtirdi. Shifokorlardan

66

DAVLATIMIZ RAHBARINING FARMONIGA KOʻRA, “JASORAT” MEDALINI OLGANIM MENGA KATTA KUCH BERDI

yelkasini yerga tekkizib, bellashuvni hal qilardi. Shunday damlarda sinfdoshlari unga havas bilan qarashi yoqimli edi. U yugurish va balandlikka sakrashda ham ilgʻor boʻlgan. Shu bois, doim “Kelajakda chempion boʻlaman”, derdi. Uchinchi sinf oʻquvchisining iqtidori ustozlarni ham hayratlantirardi. Ota-onasi Akbar bir oz ulgʻaysa, sport toʻgaragiga berishni niyat qilgandi. Ammo kutilmagan ayanchli voqea bolaning taqdiriga oʻzgartirib yubordi.

Endi 10 yoshga ega Akbar Hasanov avtohalokatga uchradi. Oqibatda ikki oyogʻining tizzasidan pasti kesildi. Kulfat shoʻx-shodon yurgan bolakayni oʻzgartirdi. Akbarning oʻziga kelishi oson kechmadi. U endi boshqalar qatori yurishga imkoniyati yoʻqligini qabul qilishi qiyin edi. Lekin taqdirga tan bermaslikdan oʻzga chora yoʻq. Kattalarning maslahati bilan oʻziga taskin beradigan boʻldi. Atrofga boqib, hayotda yolgʻiz oʻzi shu koʻyga tushmaganiga amin

yordam soʻradi. Natijada protez oyoq bilan harakatlanish mumkinligini aniqladi. Ammo bu oddiy ish emasdi. Shifokorlarning koʻrsatmasiga koʻra, buning uchun bir oz vaqt zarur edi. Bundan tashqari, yigitchadan kuchli iroda, sabr-toqat talab qilinardi. Vaqt oʻtib, aytilganidek, protezga oʻrganish oson kechmadi. Barcha azoblariga chidadi. Turli mashgʻulotlarni bajarib, oʻzini moslashtirib bordi. Koʻp oʻtmay, orzusi amalga oshdi. Endi u odamlar orasiga qoʻshilib, harakatlanadigan boʻldi.

— Toʻgʻrisi, shu paygacha bir daqiqa ham boshqalardan ortda qolganim yoʻq. Imkoniyatim cheklangan deb bekor oʻtirishni yoqtirmayman. Doim oldinga intilib yashashni yaxshi koʻraman, — deydi Akbar Hasanov. — Bolaligimdan biron ishni bajarishni maqsad qildimmi, shunga erishganman. Oʻrtoqlarim orasida faqat birinchi boʻlishni yoqtirdim. Ikkinchi guruh nogironi boʻlib qolganimdan

soʻng hayotda oʻz oʻrimni topishimda oʻrtoqlarimning hissasi katta. Ular bilib-bilmay menga ruhiy quvvat bergan. Koʻpincha tengdoshlarim koptok oʻynab, meni oʻyinga chorlardi. Bunday paytda jahlim chiqardi. Baribir avvalgiday harakat qilaman deb ahd qilardim. Bu meni tushkunlikdan olib chiqish bilan birga hayotda oʻz oʻrimni topishimga sabab boʻldi.

Akbar akaning matonati, saboti boshqalarga oʻmak boʻlmoqda. Jumladan, mamlakatimizning eng baland nuqtalaridan biri Hazrati Sulton koʻqqisini zabt etgan. Toʻrt muchasi sogʻ inson ham osonlikcha chiqa olmaydigan choʻqqiga koʻtarilish oson ish emas! Qahramonimiz hayotida bunday misollar koʻp. Eʼtiborlisi, Akbar Hasanov oʻzi tugʻilib oʻsgan Shahrisabz tumanida kattagina bogʻ barpo etib, salmoqli hosil olaypti.

— Ilgari qoʻshni viloyatlardan meva olib kelib sotardim, — deydi Akbar aka. — Ishim yomon emasdi. Topganim roʻzgʻorga yetardi. Ayrim vaqlarda meva olish uchun juda ajoyib bogʻlarga borib qolardik. Hosilni koʻrib havasim kelardi. Shunday paytlari: “Qani endi oʻz bogʻim boʻlsa”, deya koʻnglimdan oʻtkazardim. Asta-sekin bu istak maqsadga aylandi. Soʻng har bir boqqa kirganimda eʼtibor qiladigan boʻldim. U yerdan nimadir oʻrganishga intildim. Jarayonda koʻp bogʻbonlar bilan suhbatlashib, tajribasini oʻrgandim. Xullas, yetarlicha malaka toʻplab, ish boshladim. Shu tariqa “Hasanov Akbar Muhammadiyevich” masʼuliyati cheklangan jamiyatiga asos solib, 12 gektarda mevali daraxtlar oʻtqazdim. Har bir niholni parvarishlab, oʻstirdim. Hozir mazkur bogʻdorchilik jamiyatida imkoniyati cheklangan toʻrt kishi ish bilan taʼminlangan. Xoʻjalik tasarrufidagi 12 gektar maydonning 4 gektariga anor, 7 gektariga esa gilos ekilgan. Chorva va parrandachilik uchun bir gektar ajratilgan. Bundan tashqari, 12,5 sotix yerda issiqxona bor. Unga ekilgan limon 2025-yilda 5 tonnadan ziyod hosil berdi.

Bogʻbonning aytishicha, gilos daraxti Shahrisabz iqlimiga moslasha olmagan. Kutilgan natija bermagani bois, kelgusida uning oʻrniga yongʻoq ekiladi.

— Davlatimiz rahbarining farmoniga koʻra, “Jasorat” medalini olganim menga katta kuch berdi, — deydi qahramonimiz. — Bundan ruhanib, yanada koʻp ishlashni maqsad qildim. Mukofot kamtarona mehnatim uchun ragʻbat boʻldi. 2026-yilda yangi loyihalarni amalga oshirib, qoʻshimcha ish oʻrni ochishni maqsad qilganmiz. Muhimi, har bir mehnatimiz yurtga, elga naf keltirsin.

Akbar Hasanovning ishlari haqiqiy jasorat! Oʻlis bir tumandagi oddiy bogʻbonning ana shunday intilishi va matonati eʼtibordagi ekanini esa kishiga ragʻbat beradi. Ertangi kunga ishonchni mustahkamlaydi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

SEN ISTEʼDODLISAN, BOLAJON!

Buloq koʻz ochdi

Bunday eʼtibor koʻplab yoshlarga imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Jumladan, inklyuziv taʼlim Zarafshon shahri Yoshlik mahallasida yashovchi Diyorbek Muzaffarovning hayotida muhim oʻzgarishlarga sabab boʻldi. Qahramonimizga bolalar serebral falajligi tashxisi qoʻyilgan. Shu bois, u 5 yil uyida taʼlim oldi. Joriy oʻquv yilidan boshlab Diyorbek Zarafshon shahridagi 4-umumiy oʻrta taʼlim maktabining inklyuziv sinfiga qoʻshildi.

Yangi muhit, eʼtibor, qoʻllab-quvvatlov, sinfdoshlari bilan birga oʻqish imkoniyati unga kuch, ishonch va imkoniyat berdi. Ayniqsa, vokal toʻgaragidagi mashgʻulotlar uning yashirin isteʼdodini yuzaga chiqardi. Diyorbek “Sen isteʼdodlisan” tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etib, tanlovning respublika bosqichida 1-oʻrinni qoʻlga kiritdi. Shuning oʻziyoq inklyuziv taʼlimning afzalligi, yurtimizdagi islohotlar odamlar hayotini qanchalik ijobiy tomonga oʻzgartirayotganini amalda namoyon etdi.

— Oʻgʻlim Diyorbekni maktab jamoasi va tengdoshlari ham yaxshi qabul qildi, — deydi Shahnoza Rajabova. — Sinfdoshlari bilan ahil-inoq boʻlib, oʻqishga kirishib ketdi. Tez orada oʻgʻlimning bilim olishi va fikrlash qobiliyatida yaxshi tomonga oʻzgarishlar

kuzatildi. Avval kamgap edi, hozir esa erkin savol-javob qilib, fikrlarini teran ifoda etadi. Ayniqsa, maktabdagi toʻgaraklarga qiziqib, mashgʻulotlarga muntazam qatnaydi. Vokal toʻgaragi sanʼatdagi imkoniyatlarini ochib berdi. “Sen isteʼdodlisan” tanlovining respublika bosqichida gʻolib boʻlganidagi quvonchimni soʻz bilan taʼriflab berolmayman. Bu muvaffaqiyat oʻgʻlimning hayotga ishonchini yanada oshirdi. Nogironligi boʻlsa-da, sogʻlom tengdoshlaridan kam emasligini yana bir bor his etishiga imkon berdi. Oʻgʻlimning orzu va rejalari koʻp. Kelajakda ularga erishib, sanʼat sohasini puxta egallashni maqsad qilgan.

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan Diyorbekka ortopedik poyabzal, elektrli nogironlik aravachasi va harakatlanishi uchun boshqqa maxsus jihozlar berilgan. Bundan tashqari, Zarafshon shahridagi Yoshlik mahallasi ijtimoiy xodimi Gulchiroy Ibragimova qahramonimiz bilan muntazam muloqot qiladi.

— Hozir viloyatimizda nogironligi boʻlgan 5 mingdan ziyod fuqaro reabilitatsiya texnik vositalari va protez-ortopediya mahsulotlari bilan taʼminlangan, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Navoiy viloyati boshqarmasi shuʼba mudiri Lochin Obloqulov. —

Shuningdek, 2561 nafari viloyat nogironligi boʻlgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazida reabilitatsiya dasturini oʻtab, funksionalligi va sogʻligʻini tikladi. Bundan tashqari, nogironligi boʻlgan 6551 kishining bandligi taʼminlandi. My.ihma.uz platformasi orqali esa 600 nafari ishga joylashdi. Qolaversa, psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosalari asosida nogironligi boʻlgan 1256 bolaga inklyuziv taʼlim uchun tavsiya berildi. Jarayonda nogironligi boʻlgan bolalarning taʼlim olishi uchun barcha zarur sharoit yaratilmoqda. Jumladan, 263 bolada alohida taʼlimga ehtiyoj bor edi. Ular viloyatda tashkil etilgan 14 ta kunduzgi parvarishlash xizmati markazlariga qamrab olindi. Qolgan 326 bola 135 ta maktabda tashkil etilgan inklyuziv sinflarga jalb etildi.

Darhaqiqat, bunday oʻzgarishlar Diyorbek kabi koʻplab yoshlarning orzusini roʻyobga chiqarmoqda. Ularda oʻziga boʻlgan ishonchni mustahkamlab, hayot yoʻlini topib olishda muhim rol oʻynayapti.

— Maktabda oʻqish yaxshi ekan, — deydi Diyorbek Muzaffarov. — Juda koʻp doʻstlar orttirdim. Ular menga har tomonlama koʻmak bermoqda. “Sen isteʼdodlisan” tanlovining respublika bosqichida “Oʻzbekiston” qoʻshigʻini ijro etdim. Toʻgʻrisi, gʻolib boʻlaman deb oʻylamagandim. Ismim aytilgach, men uchun moʻjiza roʻy berganday boʻldi. Kelajakda sanʼat sirlarini puxta egallab, xonanda boʻlmoqchiman. Maqsadimga erishish uchun koʻproq mehnat qilishim kerakligini bilaman. Ota-onam, mahallamiz ijtimoiy xodimi, ustozlarim va doʻstlarim yaqindan koʻmak bermoqda. Atrofimda shunday insonlar bor ekan, albatta, maqsadimga erishaman.

Gʻolib ABDUSALOMOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.

32015 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Munajat Moʻminova

Musahhih: Nasiba Abdullayeva

Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz koʻchasi, 85-uy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.

Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va eʼlonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05